ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком) 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida) 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHDA 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she'riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«VAQT» KONSEPTINING BADIIY IFODALANISHI

(O'tkir Rahmat she'riyati misolida)

Maxammatova Feruza Olimovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
mustaqil tadqiqotchisi, Zarmed universiteti o'qituvchisi

Ma'lumki, bir tushuncha turli xalqlarning ongida turlicha ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, vaqt g'arb mamlakatlarida, xususan, AQSh va Germaniyada «pul», «moddiy boylik» sifatida qabul qilinsa, Yaqin Sharq mamlakatlarida vaqt qat'iy o'lchov birligi emas, balki odamlarning ehtiyojiga moslashuvchan muhit sifatida talqin etiladi.

Bunday tushuncha zamonaviy tilshunoslikda konsept atamasi bilan ifodalanadi. Konsept atamasiga olimlar turlicha ta'rif berishgan. Rus tilshunosi V.A.Maslova «konsept lingvomadaniy o'ziga xoslikka ega bo'lgan ma'lum bir etnomadaniyat vakillarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir» deb ta'riflasa[1], S.A.Askoldov konseptni «shaxsning o'zi, tevarak-atrofidagi narsalar va hodisalar haqidagi tushunchalarni o'z ichiga olgan, o'rab turgan borliqni bilishning barcha aspektlari natijalarini umumlashtiruvchi mental shakllanish»[2] sifatida ta'riflaydi. Bizningcha, konsept – insonning olam manzarasi haqida o'z tafakkuri doirasida shakllangan tushunchasini so'z orqali ifodalashidir.

Konsept muammosi jahon va o'zbek tilshunosligida bir qator ilmiy tadqiqotlarda atroflicha yoritilgan. Jumladan, O.V.Pashkevich «kontseptsiya, tushuncha, ma'no» tushunchalarini farqlash muammosiga bag'ishlangan tadqiqot olib borgan bo'lsa[3], Z.D.Popova va I.A.Sternin «Konsept mohiyati. Kognitiv tilshunoslik» nomli ishlarida konseptning mohiyatini yoritgan[4]. Sh.Safarov esa konseptlarni lingvomadaniy jihatdan tahlil qilgan «Semantika» hamda til, tafakkur va idrok masalalarini yoritgan «Kognitiv tilshunoslik» kabi risolalarni yaratgan[5].

Vaqt konseptini T.K.Yelizova, V.L.Temkina, N.E.Gorelova, O.V.Afanaseva va S.G.Klyastorniy kabi olimlarning rus, ingliz, arab, yapon hamda ispan tillaridagi «vaqt» konseptiga oid tasavvur va tushunchalarni tahlil qilgani qayd etiladi[6]. O'zbek tilshunosligida ham bu yo'nalishda bir qator dissertatsion ishlar amalga oshirilgan. M.Hakimova «O'zbek tilida vaqt ma'noli leksik-semantik maydon va uning matn shakllanish imkoniyatlari» mavzusidagi tadqiqotida payt bildiruvchi ot va ravish so'z turkumlarining matn shakllantirishdagi semantik-uslubiy xususiyatlarini o'rgangan bo'lsa[7], I.F.Mamarajabova «O'zbek tilida «vaqt» konseptli lingvistik birliklar taraqqiyoti» ishida «vaqt» ma'nosini ifodalovchi birlikning tarixiy-etimologik xususiyatlari va semantik-struktur taraqqiyotini tahlil qilgan[8]. «Vaqt» konsepti insonning umri, o'tmish, kelajak, bugun haqidagi falsafiy-estetik mushohadalarini umumlashtiruvchi tushuncha sifatida qabul qilinadi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da vaqt tushunchasi voqea-hodisalarning asrlar, yillar, soatlar, daqiqalar kabi birliklar bilan o'lchanadigan davomiyligini ifodalovchi, o'z o'lchov belgisiga ega bo'lgan obyektiv hodisa sifatida izohlanadi[9]. Falsafiy nuqtayi nazardan vaqt borliqning fazo bilan bir qatorda asosiy yashash shakllaridan biri hisoblanadi: agar fazo

[1] Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта: Наука, 2007. – С. 50.
[2] Асколдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. – М.: Академия, 1997. – с.269
[3] Пашкевич О.В. Концепт, понятие, значение: проблема дифференциации. https://studylib.ru/doc/641258/pashkevich.-o.v-koncept-ponyatie--znachenie-problema
[4] Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие концепта. Когнитивная лингвистика. https://groovedownloadfree.netlify.com/kognitivnaya-lingvistika-z-d-popova-i-a-sternin.html.
[5] Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax, 2006 . Safarov Sh. Semantika. Monografiya. – Toshkent, 2013.
[6] Otahonov A.H. "Vaqt" konseptining arab va o'zbek tillaridagi qiyosiy tahlili: Bitiruv malakaviy ishi. – Toshkent, 2019. – B. 6.
[7] Ҳакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. фан. д.-ри (DSc)...дисс. – Тошкент, 2019. – 230 б
[8] Mamarajabova I.F. O'zbek tilida " Vaqt" konseptli lingvistik birliklar taraqqiyoti.Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Toshkent, 2024.
[9] O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, 2022. – V jild. – B. 667.

narsalarning ko'lami, hajmi va o'zaro joylashish tartibini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligini, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi va, odatda, qaytarilmas o'tmishdan hozir orqali kelajakka qarab yo'nalgan bir tomonlama oqim sifatida talqin etiladi[1].

O'zbek tilida vaqt konsepti faqat vaqt leksemasi bilangina emas, balki tilning barcha sath birliklari mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, sintaktik birliklar hamda frazemalar orqali ham ifodalanadi. So'z turkumlari bo'yicha vaqt konseptini ifodalovchi asosiy leksik birliklar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

O'zbek tilida vaqt konseptini ifodalovchi lingvistik birliklarning so'z turkumlari bo'yicha taqsimlanishi

So'z turkumi / birlik	Vaqt konseptini ifodalovchi misollar
Ot (kunning qismlari)	kun, tun, tong, tong sahar, tol tush, oqshom, bomdod, peshin, asr, shom, xufton
Ot (davomiylik)	hafta, oy, yil, asr, zamon, davr, dahr
Ot (hafta kunlari)	dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba
Ot (oy nomlari)	yanvar, fevral, mart, aprel, may, iyun, iyul, avgust, sentabr, oktabr, dekabr
Ot (fasl nomlari)	yoz, qish, bahor, kuz
Sifat	ertalabki, kechki, tushgi, sahargi, oqshomgi, tonggi, bugungi, hozirgi, ertangi, kechagi, yozgi, qishgi, kuzgi, bahorgi, bulturgi, zamonaviy, qadimiy, azaliy
Ravish	birzumda, kecha, bugun, ertaga, oldin, keyin, avval, so'ng, tez orada, doimo, ba'zan, hamisha
Olmosh	o'sha vaqt, o'shanda, hozircha, o'sha vaqtda, shu vaqti, shu lahzada
Frazeologik birlik	ko'z ochib yumguncha, vaqtni boy bermoq, vaqti kelmaganda, shamolday uchib, tuya ko'rmagan qishloqday

Til va tafakkurning o'zaro munosabati mahsuli sifatida yuzaga keluvchi vaqt konsepti insonning olam manzarasini idrok etish shakllaridan biridir. Badiiy, ayniqsa she'riy kontekstda vaqt konsepti ijodkorning individual manerasini, estetik qarashlarini ifodalovchi badiiy-tasviriy vositalarga asos bo'lib xizmat qiladi. Badiiy matnda vaqt tushunchasi voqea-hodisaning ketma-ket sodir bo'layotganini ifodalovchi neytral birlik sifatidagina emas, balki lirik qahramonning ichki ruhiy holati, borliqqa munosabati, hayotiy falsafasi va olam manzarasini o'ziga xoslikda ko'ra olishini ifodalovchi kategoriya sifatida shakllanadi. Shu jihatdan O'tkir Rahmat she'riyati ham vaqt konseptining o'ziga xos poetik talqinini namoyon etadi.

Nazariy ma'lumotlar amaliyotga tatbiq etilgandagina o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qiladi. Vaqt konseptini ifodalovchi leksik birliklar badiiy matn tarkibiga kirganda o'ziga xos uslubiy imkoniyatlar kasb etadi.

Kiprik qoqqanchami umr orasi,
Yoki bir lahzada yalt etgan chaqmoq.
Junbushga solidi o'chmas nolasi
Taqdirim baxsh etgan bir qiyo boqmoq[2].

Ushbu misrada shoir vaqt konsepti ma'nosini ifodalovchi umrni *kiprik qoqqancha* kechadigan vaqtga, bir yalt etib o'chuvchi *chaqmoqqa* qiyoslash orqali metafora tasviriy vositasini yuzaga keltirgan. Ijodkor insonga omonat berilgan vaqtning nihoyatda qisqaligini, vaqtning o'tkinchi tushuncha ekanligini obrazli tasvirlagan hamda vaqtning insonga bo'ysunmasligi haqidagi falsafiy g'oyani ilgari surgan. Aslida umr ko'p yillar davom etadi; uni *kiprik qoqqanchalik* deb ta'riflash mubolag'a san'atini yuzaga keltirgan. «Kiprik qoqqanchalik» va «*bir lahzalik chaqmoq*» perifrazalari vaqt konseptini ifodalash bilan birga sinonimik metaforani ham shakllantirgan.

«Qush uchsa nogoh...» she'rida vaqtning o'tkinchi, ammo har bir kunning o'zgacha, biri-birini takror-

[1] "Falsafa": Ensiklopedik lug'at. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
[2] O'tkir Rahmat. Fasllar aylanar tugamaydi: She'rlar. – Toshkent, 2021. – B. 28.

lamasligi sinonimik metafora orqali tasvirlangan:

Gurkirab, guvullab, uxlamas *damlar*,
Sabzadek nish urgan maysalar xasdir.
Bu yerdan uzilib qolmas qadamlar
Bugunning kechagi kun ham emasdir[1].

Ushbu misrada vaqt konseptini ifodalovchi *damlar* leksemasi vaqtning bir qismini anglatuvchi *kun* leksemasi bilan sinonimik qator hosil qiladi. Kunlarning bir xilda o'tmasligi *gurkirab, guvullab* harakat fe'llari vositasida ifodalangan. *Uxlamas damlar* so'z birikmasi orqali vaqtning hech qachon to'xtab turmasligi metaforik obraz vositasida tasvirlangan. *Sabza* – ya'ni yashil, yam-yashil *maysa – vaqt o'tishi bilan sarg'aygan* xasga aylanadi; bu jarayon vaqt ta'sirida predmetning ham o'zgarib turishiga ishoradir. Demak, shoir vaqtning nafaqat insonga, balki uni o'rab turgan tabiatga ham ta'sir o'tkazishini falsafiy mushohada qilgan.

«Sen kelasan...» she'rida vaqtning beshafqat o'tishi yolmog'izga o'xshatiladi:

Yolmog'izday yamlar onlarni,
Uziladi barglar bandidan.
O'tayotgan bu imkonlarni
Mahrum aylar u dilbandidan[2].

Ushbu baytda *onlar* leksemasi vaqt konseptini ifodalovchi birlik bo'lib, daqiqa leksemasi bilan sinonimik qator shakllantiradi. Daqiqalarning tez o'tishi *yamlamoq* fe'li orqali ifodalangan va *yolmog'iz*ga qiyoslangan. *Yolmog'iz* –ertaklarda yovuzlikni ifodalovchi kampir obrazi bo'lib, so'z yalma (yalash, yutish) va og'iz so'zlarining birikuvidan kelib chiqqan, ya'ni «*yamlab yutuvchi*», «*hamma narsani yeb-yutib yuboruvchi*» ma'nosini anglatadi. Ijodkor vaqt konseptini yolmog'izga qiyoslash orqali o'xshatish tasviriy vositasini qo'llagan va vaqtning shafqatsiz, muqarrar o'tkinchi xususiyatini tasvirlagan.

«Oy to'lgan oqshom» to'plamida vaqt *charx-palakka* qiyoslansa, «Dilroz» to'plamiga kiritilgan she'rlarda vaqt *oqar suvga*, *tez esar shamolga*, *uchqur xayolga* qiyoslanadi. Ijodkor bu qiyoslashlarning barchasi zamirida vaqtning shiddat bilan o'tishini, koinotning to'xtovsiz harakatda ekanligini o'quvchiga anglatishni, har bir daqiqa va soniyaning qadriga yetish zarurligini, hayotning inson uchun g'animat ekanligini uqtirishni istaydi:

Tinchlik bermas uchqur xayollar,
Ta'nalarga yetmaydi haddim.
Karvon kabi o'tar *oy, yillar*,
Hayot go'zal, bu dunyo qadim...[3].

Ushbu baytda vaqt konseptini ifodalovchi *oy* va *yillar* sahroda yuruvchi *tuyalar (otlar, eshaklar) uyuridan tashkil topgan karvonga* qiyoslangan. *Karvon* yo'lga chiqqach, manzilga yetguncha turli xil voqea-hodisalarga duch keladi – hayot yo'li ham xuddi shunday, biroq har bir damning o'zgacha zavqi, o'zgacha hissiyoti bor. Ijodkor insonga berilgan umrni go'zal o'tkazish zarurligini o'quvchiga anglatmoqchidek tasvirlaydi.

«Har narsaning fursati yetmas» she'rida vaqt o'z hukmini o'tkazsa-da, har bir ishning bajarilishi o'z fursatiga bog'liqligi ta'kidlanadi:

Tongdan chiqqan *kun* ham ovvora,
Har narsaning fursati yetmas.
Manzil esa bitta sayyora,
Taqdir undan qochib ketolmas[4].

Vaqt konseptini ifodalovchi *tong, kun, fursat* leksemalari bu baytda o'z denotativ ma'nosidan chekinib, konnotativ ma'noni kasb etadi. She'rda *fursat* leksemasi markaziy o'rinni egallab, she'rning asosiy g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi: *fursat* misrada astronomik vaqt ma'nosida emas, balki har bir ishning bajarilishi, amalga oshirilishining o'z mavridi borligini ifodalab, metafora hosil qiladi. «Tongdan chiqqan kun ham ovvora» misrasida kun vaqt birligiga *jonlantirish* vazifasi yuklanib, *ovvora* harakat fe'li bilan izohlanadi – natijada kun o'z vazifasini bajaruvchi mavjudotdek tasvirlanadi. «Manzil esa bitta sayyora, taqdir undan qochib ketolmas» misrasida esa vaqt konsepti *taqdir* leksemasi bilan uyg'unlashib, inson umrining chegaralangan vaqt oqimida kechishini, taqdirning bu chegaradan chiqa olmasligini ifodalaydi.

Vaqt konseptini ifodalovchi konseptosferalarni badiiy matnda nazariy jihatdan tahlil qilinganda, uning semantik va uslubiy ma'no imkoniyatlarining kengligi kuzatildi. Shoir ijodida vaqt konsepti birliklari badiiy matnni shakllantiruvchi neytral til birliklari sifatida emas, balki shiddat bilan o'tuvchi, quvonchli va dilxiralik kunlarini o'zida mujassam etuvchi, inson umrining chegaralanganligini ifodalovchi ma'nolarda namoyon bo'ladi. She'rlarda vaqt konsepti *lahza, on, dam, kun, daqiqa, oy, yil, tong, fursat* kabi leksik birliklar bilan verballashib, inson umrining to'xtovsiz harakatda ekanligini, hech bir daqiqani orqaga qaytarib bo'lmasligini ifodalaydi.

Kontekstda ifodalangan konseptosferalarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilganda, bu leksik birliklar estetik zavq berish vazifasini ham bajaradi. Masalan, umrni *kiprik qoqqanchalik ketuvchi vaqtga* va *chaqmoqqa*, kunlarning turlicha o'tishini *gurkirab, guvullab* harakat fe'llari orqali metaforaga, vaqtning shiddat bilan o'tishini *shamolga*, *oqar* suvga, yamlab

[1] O'tkir Rahmat. Fasllar aylanar tugamaydi: She'rlar. – Toshkent, 2021. – B. 33.
[2] O'tkir Rahmat. Fasllar aylanar tugamaydi: She'rlar. – Toshkent, 2021. – B. 34.
[3] O'tkir Rahmat. Dilroz: She'rlar. – Toshkent, 2023. – B. 98.
[4] O'tkir Rahmat. Fasllar aylanar tugamaydi: She'rlar. – Toshkent, 2021. – B. 155.

yutuvchi yolmog'izga, to'xtovsiz harakatda ekanligini charxpalakka qiyoslash orqali o'xshatish tasviriy vositasiga, tongdan chiqqan kunning «*ovvora*»ligini tasvirlash orqali esa jonlantirishga asos bo'lgan. Ana shu poetik vositalar orqali vaqt mavhum tushunchadan o'quvchi ongida aniq, jonli tushunchaga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, shoir ijodida vaqt konseptining kontekstda ifodalanishini lingvopoetik jihatdan tahlil qilish ijodkorning vaqtga bo'lgan munosabatini, shu orqali uning individual uslubini belgilash imkonini beradi. Har bir ijodkorning bu boradagi qarashlarini o'rganish, o'z navbatida, butun bir xalqning vaqt konseptiga bo'lgan munosabatini – ya'ni lingvomadaniy munosabatni – belgilashga zamin yaratadi.

Rezyume. Maqolada «vaqt» konseptining tilshunoslikdagi nazariy talqinlari umumlashtirilib, uning o'zbek tilida ifodalanish vositalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'tkir Rahmat she'riyati misolida vaqt konseptining badiiy-poetik ifodalanish xususiyatlari, metafora, o'xshatish va jonlantirish kabi tasviriy vositalar orqali yuzaga kelishi yoritiladi.

Resume. The article summarizes theoretical interpretations of the concept of «time» in linguistics and analyzes the means of its expression in the Uzbek language. Using the poetry of O'tkir Rahmat as material, it examines the artistic-poetic features of expressing the time concept, realized through such figurative devices as metaphor, simile, and personification.

Резюме. В статье обобщаются теоретические трактовки концепта «время» в лингвистике и анализируются средства его выражения в узбекском языке. На материале поэзии Уткира Рахмата рассматриваются художественно-поэтические особенности выражения концепта времени, реализуемые через такие изобразительные средства, как метафора, сравнение и олицетворение.